

Abdukarim Jumaboyev

MARG‘ILONDA BO‘LGANMISIZ HECH...

She’rlar

«FARG‘ONA» nashriyoti,
2006 yil

*Qadim va navqiron Marg‘ilon shahrining
2000 yilligiga bashshlayman.
Muallif.*

SO‘ZBOSHI

Marg‘ilonda iqtidorli bir ijodkor yashaydi. Gap shundaki, u shiringina she’ru g‘azallar bitadi. Shu bilan birga shirali ovoz sohibi: mumtoz va zamonaviy qo‘shiqlarni maromiga yetkazib aytib, kattakichik marosimlarda qator-qator sovrinlar ham olgan. Bir necha she’riy kitoblar muallifi.

Abdukarim Jumaboev ana shunday ijodkordir. Uning bir qarashda soddagina tuyulgan satrlari ta’sirli, dardli, teran ma’noli. Necha o‘nlab she’rlari efir to‘lqinlari orqali jaranglab, shinavandalar diliga orom berayotganligining boisi ham ana shunda.

Shoirning ushbu majmuasiga uning yangi asarlari jamlangan. O‘ylaymizki, to‘plam kitobxonlarni mammun etadi.

Oxunjon Hakimov,
O‘zbekiston xalq shoiri.

VATAN

Ey turkim, Turonim, ey, dilbar Vatan,
Ey islom nuridan munavvar Vatan,
Muqaddas tuprog‘ing simu zar Vatan,
Quyoshdek barchaga barobar Vatan,
Onadek mehribon, mo‘tabar Vatan.

Tarixing ne qaro zamonlar ko‘rdi,
Yog‘iyga talangan karvonlar ko‘rdi,
Shayton adashtirgan sarbonlar ko‘rdi,
Ammo sen barchaga barobar Vatan,
Onadek mehribon, mo‘tabar Vatan.

Bag‘ringda sahroyu bo‘stonlar yashar,
Bog‘ingda gullaru tikanlar yashar.
Hotamlar, ochko‘zlar, yomonlar yashar,
Quyoshdek barchaga barobar Vatan,
Onadek mehribon, mo‘tabar Vatan.

Dunyoda dunyodek tengsiz Vatansan,
Har o‘zbek talpingan yolg‘iz Vatansan,
Jon desam, jonlardan aziz Vatansan,
Quyoshdek barchaga barobar Vatan,
Onadek mehribon, mo‘tabar Vatan.

O‘ZBEKISTON

Dunyoda tengi yo‘q, jonim-jahonim,
Xalqi odamoxun, tanti mezbonim,
Oltinim, gavharim, duru marjonim,
Hech kimdan kam emas, O‘zbekistonim.

Istiqlol yashnatgan bog‘laring go‘zal,
Ko‘klarga yuksalgan tog‘laring go‘zal,
Bayraming, bu shodlik chog‘laring go‘zal,
Hech kimdan kam emas, O‘zbekistonim.

Beg‘ubor, musaffo osmonlaring bor,
Ravzai Rizvondek bo‘stonlaring bor,
Temurdek alp, metin qalqonlaring bor,
Hech kimdan kam emas, O‘zbekistonim.

Bilsinlar, ahdimiz ko‘rolmaganlar,
Oliy shon, taxtimiz ko‘rolmaganlar,
Tinchligu baxtimiz ko‘rolmaganlar,
Hech kimdan kam emas, O‘zbekistonim.

ELINGDAN AYRILMA

Shuhrat qo‘llarini mahkam tutsang ham,
Orzu cho‘qqisiga borib yetsang ham,
Xudo umr berib, yuzdan o‘tsang ham,
Elingdan ayrılma, yurtdan ketsang ham.

Bilasan, afg‘onning afg‘onlarini,
Tojikning ko‘z yoshi, qurbanlarini,
Vatanda bevatan sarsonlarini,
Elingdan ayrılma, yurtdan ketsang ham.

Xalifat bo‘lmoqlik o‘zi xomxayol,
Tuya hammom orzu qilgani misol,
Odam nomi senga bo‘lmasin uvol,
Elingdan ayrılma, yurtdan ketsang ham.

Baxillar makriga bog‘lanib qolma,
Xalqingga dushmandek chog‘lanib qolma,
Bir umr armonda dog‘lanib qolma,
Elingdan ayrılma, yurtdan ketsang ham.

Millating o‘zbekdir, tiling o‘zbekdir,
Borlig‘ing o‘zbekdir, diling o‘zbekdir,
Dunyolar tanigan, eling O‘zbekdir,
Elingdan ayrılma, yurtdan ketsang ham.

BURHONIDDIN MARG‘ILONIYGA

Buyuk Turon davlatining shayxul islomi,
Hidoyatli Burhoniddin Marg‘iloniysiz.
Shariat ham tariqatni kitob aylagan,
Karomatli Burhoniddin Marg‘iloniysiz.

Siz Allohnning nomi bilan "Hidoya" bitgan,
Avlod-ajdodlari shoni dunyoga ketgan,
Marg‘iloni yetti iqlimlarga tanitgan,
Sahovatli Burhoniddin Marg‘iloniysiz.

Shohlar ta’zim qilgan buyuk shayxim, buzrutim,
Moziylardan qad ko‘rsatgan qadrim, o‘zligim.
Bugun sizni yodga olar ozod o‘zbegin,
Saodatlri Burhoniddin Marg‘iloniysiz.

Siz turasiz yo‘l ko‘rsatib adashganlarga,

Bevafo dunyoda dunyo talashganlarga.
Yor bo‘ldingiz haqdan iymon tilashganlarga,
Zakovatli Burhoniddin Marg‘iloniysiz.

Siz tufayli yurtimizda ulug‘ ayyomlar,
Sizni o‘qib, savob izlar ahli islomlar.
Siz uchundir, Karim bitgan nazmu kalomlar,
Sharofatli Burhoniddin Marg‘iloniysiz.

ONAJONLAR

Samolarni qoplardi bulut,
Zulmat aro qolardi el-yurt.
Ne bor ezgu - bo‘lardi unut,
Agar onajonlar bo‘lmasa.

Aslo qaytib kelmasdi bahor,
Quyosh kulib boqmasdi zinhor,
Aytilmasdi alla-yu yor-yor,
Agar onajonlar bo‘lmasa.

Ochilmasdi turfa atirgul,
Sayramoqni bas qilar bulbul,
Na sevgi bor, na oshiq ko‘ngil,
Agar onajonlar bo‘lmasa.

To‘xtar edi sho‘x oqar daryo,
Bo‘m-bo‘sh bo‘lib qolardi dunyo,
Eshitilmas bir shirin sado,
Agar onajonlar bo‘lmasa.

Ko‘tarolmay g‘am-alam yukin,
Tog‘u toshlar bo‘lar chilparchin,
Aylanmoqdan to‘xtardi zamin,
Agar onajonlar bo‘lmasa.

Karim, ona mehri-yu sehrin,
Qudratiga ne ham kelar teng,
Qayda bular edik: men-u sen,
Agar onajonlar bo‘lmasa.

MARG‘ILONDA BO‘LGANMISIZ HYeCh?

Subhi shirin, sabosi shirin,
Suvi shirin, havosi shirin,
Avji baland, navosi shirin,

Marg‘ilonda bo‘lganmisiz hech?

Quchog‘ida gullar yayragan,
Bog‘larida bulbul sayragan,
Qah-qahayu, kulgu yangragan,
Marg‘ilonda bo‘lganmisiz hech?

Zilol-zilol oqar soylari,
Osmondamas yerda oylari,
Hotamtoydan hotam boylari,
Marg‘ilonda bo‘lganmisiz hech?

Marg‘iloniy izlari tushgan,
Shoh Boburning ko‘zları tushgan,
Allohimningnazari tushgan,
Marg‘ilonda bo‘lganmisiz hech?

San’atimiz buyuk shonlari,
Ma’murjonu Jo‘raxonlari,
Yusufjonu Oxunjonlari,
Marg‘ilonda bo‘lganmisiz hech?

Kezing ko‘rkam gulzorlarini,
Ziyoratgoh, mozorlarini.
Bir aylashdag boeorderini,
Marg‘ilonda bo‘lganmisiz hech?

Biri kosib, biri hunarmand,
Biri san’at ko‘shkida baland,
Oqsoqoli aytib turar pand,
Marg‘ilonda bo‘lganmisiz hech?

Do‘ppisini kiygandan so‘rang,
To‘ylarida to‘ygandan so‘rang,
Kumushini suygandan so‘rang,
Marg‘ilonda bo‘lganmisiz hech?

Yigitlari Alpomish bellik,
Bobolardan meros xushfe’lllik,
Tarixi bor ikki ming yillik,
Marg‘ilonda bo‘lganmisiz hech?

Yonib turgan qo‘zlar bizdadir,
Nur yog‘ilgan yuzlar bizdadir,
Tosh eritgan so‘zlar bizdadir,
Marg‘ilonda bo‘lganmisiz hech?

Pisand qilmay g‘amlar tog‘ini,

Asraydilar ko‘ngil bog‘ini,
«Siz»lar hatto chaqalog‘ini,
Marg‘ilonda bo‘lganmisiz hech?

Mehmon nadir, keling bir ko‘ring,
Mezbon nadir, keling bir qo‘ring,
Inson nadir, keling bir ko‘ring,
Marg‘ilonda bo‘lganmisiz hech?

Ona shahrim, ey, Onajonim,
Shohi-ipak atlasga konim,
Nondek aziz, manzil-makonim
Marg‘ilonda bo‘lganmisiz hech?

ShOIRNING BAXTI

Uyqusiz tunlarni o‘tkazib bedor,
Tongda ash’or bilan ko‘rishar diydor.
Ayting shoir uchun o‘zga ne baxt bor?
She’rlarin o‘qisa Hazrati inson,
Shoir o‘zi uchun yozmas hech qachon.

Ilhomi bir azim daryo bo‘lsa ham,
Otashin hislari dunyo bo‘lsa ham.
Sevgani Shirin yo Laylo bo‘lsa ham,
Sizga deb bitajak sevgidan doston,
Shoir o‘zi uchun yozmas hech qachon.

Qalbida tiganmas armon bo‘lsa ham,
Sevgida topgani hijron bo‘lsa ham,
Sog‘inchdan ko‘zлari giryon bo‘lsa ham,
Faqat sizga aytar dardin begumon,
Shoir o‘zi uchun yozmas hech qachon.

Jahonning shodligi do‘stlar, siz bilan,
Vatan obodligi siz-u biz bilan,
Bizda inson qadri qolgan iz bilan,
Shuhrati olamni tutsa ham chunon,
Shoir o‘zi uchun yozmas hech qachon.

Baxtlidir xalqining baxtin kuylagan,
Yolg‘onmas rostini, naqdin kuylagan,
Sadoqat burchini, ahdin kuylagan,
Ta’rifga loyiqidir benazir zamon,
Shoir o‘zi uchun yozmas hech qachon.

ChO‘LPON MAKTUBI

Atrofim baland tog‘lar,
Oyoq-qo‘llarim bog‘lar.
Andijon ketolmayman,
G‘anim yo‘llarim poylar.

Zulmat ziyoni yutdi,
Ayriliq jondan o‘tdi.
Nechun do‘sit eshitmaydur,
Dodim falakni tutdi.

Qush edim buyurdilar,
Qanotim qayirdilar.
She’rimdan, qalamimdan,
Vatandan ayirdilar.

Boshimga kasofatlar,
Yog‘dirdi malomatlar.
Meni bunda keltirdi,
G‘iybatu razolatlar.

Endi qaytarim yo‘qdir,
Yozar daftaram yo‘qdir,
To‘rt devor orasinda,
Dardim aytaram yo‘qdir.

Atrofim baland tog‘lar,
Tog‘lar yo‘llarim bog‘lar.
Andijon ketolmayman,
Qo‘nglimda alam - dog‘lar.

ShOHIMARDONIM (Suv toshqini qurbanlariga)

Oq suvlari qaro bo‘lgan, Shohimardonim.
Toshqinlari balo bo‘lgan, Shohimardonim. ,
Yurak bag‘ri yaro bo‘lgan, Shohimardonim,
Ayriliqdan ado bo‘lgan, Shohimardonim.

Bir kechada oqib keldi balolar toshi,
Bir kechada nechalarning oqardi sochi.
Yo sinaldi insonlarning sabr-bardoshi
Oromidan judo bo‘lgan, Shohimardonim.

Bulutlardan qaro kiymish osmoning sening,
Motamsaro mehmonlaring mezboning sening.

Ikki soydir, ikki chashmi giryoning sening,
Ko‘z yoshlari daryo bo‘lgan, Shohimardonim.

Farzandlarin dog‘in aytib bo‘zlagan qancha,
Qarindoshin yig‘lab-yig‘lab so‘zlagan qancha.
Otajon deb, onajon deb, izlagan qancha,
Yetimlarga aso bo‘lgan, Shohimardonim.

Alloh neki buyurgani bo‘lg‘usi har dam,
Unikidir qaxru g‘azab, uniki karam.
Kimga aytib, kimga yig‘lar chorasiz odam,
Faryodlari nido bo‘lgan, Shohimardonim.

Shahidlarni jannatmakon ayla Allohim,
Qolganlarga sabri jamil bergen ilohim,
Karim, she’rga soldi bu kun faryodin, ohin,
Fidolarga fido bo‘lgan, Shohimardonim.

O‘TINCh

Ba’zida, oldidan oqqan ariqning
Qadriga yetmaydi bexabar banda.
So‘ng afsus chekadi bir kuni kelib,
O‘scha tiniq suvlar oqib bitganda.

Ba’zida, zahmatkash ota-onaning
Qadriga yetmaydi beadab banda.
So‘ng qarg‘ab qoladi bir kun farzandi,
Uning xatolarin takror etganda.

Ba’zida, qarindosh, aka-ukaning
Qadriga yetmaydi molparast banda.
Bir qun peshonaga urib qoladi,
Mansab, davlatlari qo‘ldan ketganda.

Ba’zida, beminnat Ona-Vatandan
Baxt izlab ketadi noshukur banda.
Bir og‘iz o‘zbekcha so‘zga zor bo‘lar,
Musofirlik toshi boshga tekkanda.

Ba’zida, umrning oltin onlarin
G‘aflatda o‘tkazar adashgan banda.
Kech qolib uyg‘onar, quyosh ham botib,
Yoshlik karvonlari o‘tib ketganda.

Tiriklik ishqida qancha xatolar,
Gunohlar qiladi sabri yo‘q banda.

Xudoyo, shavqating tutmagin darig‘,
Ular huzuringga borib yetganda.

YoDNOMA

(*Ma’murjon Uzoqov xotirasiga*)

Aylanur charxi falak, yer birla osmon aylanur,
Gardishi davron aro ming turfa inson aylanur,
Bo‘limgay dunyoga ustun, shohu sulton aylanur,
Qancha olim, qancha shoir ham g‘azalxon aylanur,
Ikki eshik orasinda qancha karvon aylanur.

Bu jahonning sahniga kim necha xushxon kelmadi,
Qancha xushxon keldi, ammo asl Ma’murjon kelmadi,
Lahjada shirin zabon-zo‘r avji osmon kelmadi,
Vo darig‘o ul kabi ardoqli mehmon kelmadi,
Marg‘ilonim bog‘larida endi armon aylanur.

Bir buyuk hofiz eding sen «Yakka bu Farg‘onada»,
«Surating» qoldi «Fig‘onkim» har dili vayronada,
To hanuz yangrar sen aytgan yallalar to‘yxonada,
Rishtai joning uzilgan bog‘aro choyxonada,
Sen kabi ulfatga muhtoj qancha mezbon aylanur.

Marg‘ilon ahli hamisha xotirangni yod etur,
Yod etib mehru muhabbat birla ruhing shod etur,
Ahli ishq gullar qo‘yibul markabing obod etur,
To Karimdek, necha shoir ta‘rifing irshod etur,
El aro noming, Ma’murjon, misli doston aylanur.

DO‘ST

Dunyolarga yurak dardim sig‘madi,
Armon xanjar bo‘lib bag‘rim tig‘ladi.
Kunglim o‘zi ay tib, o‘zi yig‘ladi,
Na do‘st buldim, na oir do‘st topolmadim.

Kimga mehr qo‘ysam, jabri ko‘p bo‘ldi,
Vafo-sadoqatning qabri ko‘p bo‘ldi.
Ne tong osmonimning abri ko‘p bo‘ldi,
Na do‘st bo‘ldim, na bir dust topolmadim.

Yaxshi-yomonlarning suhbatin ko‘rdim,
Tiriklik zahmatin, mehnatin kurdim.
Munofiq bandalar g‘iyabatin ko‘rdim,
Na do‘st bo‘ldim, na bir do‘st topolmadim.

Aro yo‘lda tashlab ketar yomon do‘st,
Sendek yaxshi do‘stni netar yomon do‘st,
Bir kuni boshingga yetar yomon do‘st,
Na do‘st bo‘ldim, na bir do‘st topolmadim.

Navoiy topmagan mehribon qayda,
Shoh Bobur izlagan diliston qayda,
Sen yaxshi qayda-yu, men yomon qayda,
Na do‘st bo‘ldim, na bir do‘st topolmadim.

Quyoshni do‘st tutdim, vafo qilmadi,
Oy-yulduzlar meni ko‘zga ilmadi,
Umidim yor edi, u ham kelmadni,
Na do‘st bo‘ldim, na bir do‘st topolmadim.

Yorsiz dunyo g‘alat ko‘rinar ko‘zga,
G‘am tamg‘asi tushar manglayga, yuzga,
Karim, ikki dunyo Allohdan o‘zga,
Na do‘st bo‘ldim, na bir do‘st topolmadim.

SAN’ATIM

Ko‘zimga qatra yosh ilingan chog‘lar,
Ko‘ksim tikanlarga tilingan chog‘lar,
Ayriliq azobi bilingan chog‘lar,
Suyanchim sen bo‘lding, aziz san’atim.

Dunyo g‘amlaridan sabrim bitsa ham,
Qalbimni quzg‘unlar, zog‘lar titsa ham,
Ishongan do‘stlarim tashlab ketsa ham,
Tayanchim sen bo‘lding, aziz san’atim.

Boshimga yog‘dirib turfa balolar,
Dilim siyoh qilsa ko‘ngli qarolar,
Mehribon onamdek qilib duolar,
Ishonchim sen bo‘lding, aziz san’atim.

Telba dunyo meni ming ko‘yga solsa,
G‘arazli nigohlar yoqamdan olsa,
Bechora bu ko‘nglim yolg‘izlab qolsa,
Yupanchim sen bo‘lding, aziz san’atim.

San’atim, qadringai ayt, kimlar bilur,
Ko‘ngli ishq dardidan yarimlar bilur,
Seni jondan sevgan Karimlar bilur,
Quvonchim sen bo‘lding, aziz san’atim.

BO‘LMASA

Hayo yarashgandek yuzlarga,
Ma’no bezak bo‘lar so‘zlarga,
G‘ubor to‘lar edi ko‘zlarga,
Agar, mujgonlari bo‘lmasa.

Hijronu rashk, ayriliq behad,
Azobidan chekmasang zahmat,
Shirin bo‘lmas edi muhabbat,
Agar, armonlari bo‘lmasa.

O‘tar yillar, o‘tar davronlar,
Kelib-ketar qancha insonlar,
Kimga kerak yo‘llar, dovonlar,
Agar, karvonlari bo‘lmasa.

Hayot o‘rmon, bo‘lmas bexatar,
G‘ofil bo‘lma, qolma bexabar,
O‘rmon bo‘larmidi, birodar,
Vahshiy hayvonlari bo‘lmasa.

Ne Tohirlar oqqan daryoga,
Ne Majnunlar kuygan sahroda,
Ko‘lim siltab ketay dunyoga,
Shirin yolg‘onlari bo‘lmasa.

YoR-YoR

Derazadan oy mo‘ralar g‘amga botib,
Alam-alam boshim yorar toshlar otib,
Bahosi yo‘q muhabbatni arzon sotib,
Bir to‘p qizlar ketib borar yor-yor aytib,
Vafosi yo‘q bir go‘zalga alyor aytib.

Ko‘nglim shirin yolg‘onlarga aldandi-ku,
Ishva bilan qarashlarga bog‘landi-ku,
Armon degan doshqozonda dog‘landi-ku,
Bir to‘p qizlar ketib borar yor-yor aytib,
Vafosi yo‘q bir go‘zalga alyor aytib.

Kelin bo‘lib ketar endi Farg‘onadan,
Baxtin izlab o‘shal tilla ostonadan,
Paranjiga o‘rab, asrab begonadan,
Bir to‘p qizlar ketib, borar yor-yor aytib,

Vafosi yo‘q bir go‘zalga alyor aytib.

Tushlar ekan, Karim, sevdim deb yurganing,
Majnun bo‘lib har tarafga yugurganing,
Taqdir ekan, Tangrim, O‘zing buyurganing,
Bir to‘p qizlar ketib borar yor-yor aytib,
Vafosi yo‘q bir go‘zalga alyor aytib.

YoLG‘ONLARG A ALDANMA

Dasti daroz mehribonlarga,
Fikri sayoz suxandonlarga,
Ko‘ngli ayoz, zimistonlarga,
Osmonlarga aldanma, jonim.

Ayamaslar dunyoni sendan,
O‘zida yo‘q vafoni sendan,
Falakdagi Zuhroni sendan,
Dostonlarga aldanma, jonim.

Sevdim degan devonalarga,
Kuydim degan afsonalarga,
Sham ko‘rmagan parvonalarga,
Yolg‘onlarga aldanma, jonim,

Husning quyosh bo‘lsa ham so‘nar,
Inson taqdir izmiga ko‘narr
Qabring uzra qizg‘aldoq unar,
Mehmonlarga aldanma, jonim.

Oshiq boshqa, nokas boshqadir,
Hijron boshqa, araz boshqadir,
Sevgi boshqa, havas boshqadir,
Davronlarga aldanma, jonim.

BIROV BILMADI

Qiynab meni qoshi qalamlar,
Qo‘sishiq ayting, deydi sanamlar.
Yuragimda qancha alamlar,
Faqat, buni birov bilmaydi.

G‘amlar to‘la daryodir qalbim,
O‘t purkagan sahrodir qalbim.
Oftobi yo‘q dunyodir qalbim,
Faqat, buni birov bilmaydi.

Oqar suvday oqar ko‘z yoshim,
Soqov dunyo bo‘ldi sirdoshim,
Adashganlar edi yo‘ldoshim,
Faqat, buni birov bilmaydi.

Sevgi dardi davlatim bo‘ldi,
Majnunligim shuhratim bo‘ldi,
Armon sodiq ulfatim bo‘ldi,
Faqat, buni birov bilmaydi.

Men kuylasam she’rlarim yig‘lar,
Ko‘nglimdagi sirlarim yig‘lar,
O‘tgan umrim, yillarim yig‘lar,
Faqat, buni birov bilmaydi.

Aytolmasam qo‘sishiq, sanamlar,
Ranjimang hech qoshi qalamlar.
Kuylay desam qo‘ymas bu g‘amlar,
Faqat, buni birov bilmaydi.

IRMOQ

Mayli, sen hech qachon meniki bo‘lma,
Asli shunday bo‘lsa, agar, muhabbat.
Yokut lablaringdan raqibim o‘psin,
Men armon quchoqlab o‘tay to abad.

Hijronning qop-qora sochlarin silab,
Ko‘mirdek tanidan qilmasdan hazar.
Habash yuzlaridan jirkanmay o‘pay,
Azroil yoqamdan tutgunga qadar.

Burdalab tashlayin yurak deganni,
Menga qasd qilganlar, quzg‘unlar to‘ysin
Sen bilan farqimiz ko‘ra olmagan,
Ko‘zimni og‘riqlar bir ochib qo‘ysin.

Sen esa ketaver mag‘rur va masrur,
Salom ham bermagin, xayr demagii,
Mendaylar juda ko‘p yorug‘ olamda,
Bu birkam dunyoning g‘amin yemagin.

Seni ko‘rganimda tosh kabi qotsam,
Malol olsang agar ko‘zu ko‘nglingda.
Aylanib o‘tmagin, bir tepib o‘tgin,
Toshlarga nima bor, sening yo‘lingda.

Shirin yolg‘onlardan guldasta tutib,
Urinmay ko‘yaqol, taskin bermoqqa,
Daryodek oqib o‘t, hech parvo qilma,
Senga yetolmagan g‘arib irmoqqa.

BILMAYSIZ

Men sizni sevib qoldim,
Barchadan bezib qoldim,
Yolg‘iz sizni deb qoldim,
Nega, nega bilmaysiz?

Sizni deb ko‘zim giryon,
Sizni deb yurak bir yon,
Tokay yayragay hijron,
Nega, nega bilmaysiz?

Dard kelib-ketar mehmon,
Bordir doriyu darmon,
Ammo, ishq dardi yomon,
Nega, nega bilmaysiz?

Sevdim, mubtalo bo‘ldim,
Shoh edim gado bo‘ldim,
Bor edim ado bo‘ldim,
Nega, nega bilmaysiz?

Siz mening yuragimsiz,
Hammadan keragimsiz,
Karimdan tilagimsiz,
Nega, nega bilmaysiz?

YoNIMDA BO‘LSANG

Yigit boshim xam bo‘limgay hech,
Ko‘zlarimda nam bo‘limgay hech,
Ro‘zg‘orimda kam bo‘limgay hech,
Zeboginam, yonimda bo‘lsang.

Qo‘sishqlarim sozu sho‘x bo‘lar,
Mushkullarim oson yo‘q bo‘lar,
Farzandlarim ko‘ngli to‘q bo‘lar,
Zeboginam, yonimda bo‘lsang.

Sevib-sevib senga yetganim,

Ishqing yuragimga bitganim,
Bir umrga qo‘ling tutganim,
Zeboginam, yonimda bo‘lsang.

Baxtli kunlarimning kuvonchi,
G‘amli kunlarimning yupanchi,
Mehru muhabbatim tayanchi,
Zeboginam, yonimda bo‘lsang.

Sevgi to‘la yuragim o‘zing,
Ikki dunyo keragim o‘zing,
Yolg‘izgina tilagim o‘zing,
Zeboginam, yonimda bo‘lsang.

VISOL

Sen kelasan, shodligim behad,
Oftoblarga to‘la osmonim.
Ammo qaytib ketmog‘ing o‘ylab,
Visolingdan qo‘rqaman, jonim.

Sen bilasan, gar kelmasang ham,
Xayolingsiz o‘tmas bir onim.
Faqat hijron ergashgan o‘sha
Visolingdan qo‘rqaman, jonim.

Seni ko‘rsam, adashar aqlim,
So‘z aytmoqqa qolmas imkonim.
Yurak dardim yangidab ketgan,
Visolingdan qo‘rqaman, jonim.

Seni ko‘rmoq istagim faqat,
O‘zing baxtim, o‘zing armonim.
Ayriliqni yetaklab olgan,
Visolingdan qo‘rqaman, jonim.

TUSH BULSA EDI

Sizni deb kuyganlarim,
Ardoqlab suyganlarim.
Tush bo‘lsa ko‘rganlarim
Zora, uyg‘onib qolsam.

Dil berib bevafoga,
Kunim qoldi ja foga,
Chidab bo‘lmas jazoga,

Zora, uyg‘onib qolsam.

Aldandi orzularim,
Ilk sevgim, tuyg‘ularim,
Zo‘r kelib qayg‘ularim,
Zora, uyg‘onib qolsam.

Hamma yor sizday yormi?
Sevgida vafo bormi?
Vafo dunyosi tormi?
Zora, uyg‘onib qolsam.

Yuragim g‘amga to‘ldi,
Xazonlardek to‘kildi,
Ne bo‘lsa, ko‘nglim bo‘ldi,
Zora, uyg‘onib qolsam.

LO‘LI QIZ

Yo‘lim to‘sib, naqding ko‘ray deb,
Toleingdan, baxting ko‘ray deb,
Yo, davlating, taxting ko‘ray deb,
Aldasang ham mayli, lo‘li qiz.

Sevgan yoring yoningda deding,
Muhabbati joningda deding.
Tug‘yonlari qoningda deding,
Avrasang ham mayli, lo‘li qiz.

Bilmaysan-da, borligin firoq,
Yorim mendan juda ham yiroq,
Yolg‘onlardan yondirib chiroq,
Aldasang ham mayli, lo‘li qiz.

Ta’rif etib gul jamolini,
Va‘da qilding yor visolini,
Totib ko‘ray yolg‘on bolini,
Aldasang ham mayli, lo‘li qiz.

Avrashlaring aqlimni olar,
Ko‘nglim senga ishonib qolar,
Ilk sevgimni yodimga solar,
Aldasang ham mayli, lo‘li qiz.

KIM QOLDI

Yorim sizni suymagan,
Suyib, mehrin qo‘ymagan,
Yurak-bag‘ri kuymagan,
Ayting, yana kim qoldi?

Oshiqlar qator-qator,
Sig‘maydi, ko‘changiz tor,
Farg‘onada sizga zor,
Ayting, yana kim qoldi?

Muhabbat bu keng bozor,
Shoh-gadoga teng bozor,
Bir sizga ming xaridor,
Ayting, yana kim qoldi?

Sizni o‘ylab yurmagan,
Shirin xayol surmagan,
Tushida bir ko‘rmagan,
Ayting, yana kim qoldi?

Sizni sevib tolmagan,
Sevib, she’rga solmagan,
Izingizdan qolmagan,
Ayting, yana ktsm qoldi?

BILMAGAN O‘ZIM

Gunohlar ko‘p bo‘ldi, xato ko‘p bo‘ldi,
Omonat jonimga jazo ko‘p bo‘ldi,
Vafo qilganimdan jafo ko‘p bo‘ldi,
Birovlar bildilar, bilmagan o‘zim.

Besh kunlik dunyoga mehrimni qo‘yib,
Meni suymaganni jonimdan suyib,
O‘tdim, kuymaganga behuda kuyib,
Birovlar bildilar, bilmagan o‘zim.

Goh yaxshilik qildim, goho yomonliq,
Goh adashdim, goho bo‘ldim imonliq,
Goho imonsizdan so‘rdim omonliq,
Birovlar bildilar, bilmagan o‘zim.

Ko‘ngil ko‘chasida darbadar kezdim,
Goh hayotni sevib, gohida bezdim,
Kuyladim, oshiqlar bag‘rini ezdim,
Birovlar bildilar, bilmagan o‘zim.

Tangrim, gunohimiz kechirguvchi Sen,
Chirog‘imiz yoqib, o‘chirguvchi Sen.
Kaloming har dilga ko‘chirguvchi Sen,
Birovlar bildilar, bilmagan o‘zim.

DUNYo

Bor dunyo, bashang dunyo,
Jonlarga jafo qilding.
Tor dunyo, tajang dunyo,
Ayt, kimga vafo qilding?

Berib kimgadir davlat,
Kimga ranj ila mehnat,
O‘zing baxt, o‘zing g‘urbat,
Ayt, kimga vafo qilding?

Sirli oy-quyoshingni,
Daryo, tog‘u toshingni,
Birov bilmas yoshingni,
Ayt, kimga vafo qilding?

Gohida koshonasan,
Gohida vayronasan,
Bir zumda begonasan,
Ayt, kimga vafo qilding?

Karim aqlin olursan,
Ne kuylarga solursan,
Kulib chapak chalursan,
Ayt, kimga vafo qilding?

AYTAQOL ENDI

Kel, ey, shirinlar shirini, laylivash pari,
Dilbarlikda barcha dilbarlarning dilbari.
Tarqab ketsin tuman kabi gumonlar bari,
Goho eslab yurganiningni aytaqol endi,
Meni yaxshi ko‘rganiningni aytaqol endi.

Muhabbatim pinhon edi, oshkora bo‘ldi,
Boshim uzra xayollarling sayyora bo‘ldi,
Dilingdigin bilolmayin dil pora bo‘ldi,
Goho eslab yurganiningni aytaqol endi,
Meni yaxshi ko‘rganiningni aytaqol endi.

Xayollaring bosh ustiga, ey, pari chehram,
Qarashlaring dardlarimga doriyu malham,
Ming bor dedim sevganimni, bir bora sen ham
Goho eslab yurganingni aytaqol endi,
Meni yaxshi ko‘rganiningni aytaqol endi.

Mehribonsan, oshig‘ingga shafqating qani?
Sho‘xliklaring, shaddodliging, jur’ating qani?
Tortinmagin, so‘zla, keldi navbating, qani,
Goho eslab yurganingni aytaqol endi,
Meni yaxshi ko‘rganiningni aytaqol endi.

QIZGINA

To‘lmasdan o‘n olti yoshingga,
Qalamlar tortildi qoshingga,
Savdolar orttirma boshingga,
Shoshilma, qizgina, shoshilma.

Bo‘yalmish lablaring, yuzlaring,
Ranglardan ko‘karmish ko‘zlarling,
O‘ylamay so‘zlama so‘zlarling,
Shoshilma, qizgina, shoshilma.

Behuda kulmagan sharaqlab,
Bemahal yurmagin yaraqlab,
Ketmagan uyingdan yiroqlab,
Shoshilma, qizgina, shoshilma.

Noziksan, qizg‘aldoq loladan,
So‘rab bil mehribon onadan,
Farqing yo‘q hali yosh boladan,
Shoshilma, qizgina, shoshilma.

Ishq emas, sen bilgan o‘yinchoq,
Kelinmas qo‘lingda qo‘g‘irchoq,
Hozircha, top boshqa ovunchoq,
Shoshilma, qizgina, shoshilma.

Ajinlar tushganda yuzingga,
Dunyo tor kelganda ko‘zingga,
Buyoqlar toparsan o‘zingga,
Shoshilma, qizgina, shoshilma.

Bir kuni bo‘ylashib bo‘yingga,
Sovchilar keladi uyingga,
To‘planib boramiz to‘yingga,

Shoshilma, qizgina, shoshilma.

O‘JARQIZ

Oshiq bo‘ldim beqaror,
Go‘zallar shaddodiga,
O‘jar qiz qulq solmas,
Yuragimning dodiga.

Sog‘intirib ataydan,
Bag‘ritosh ko‘ngli to‘lar,
Meni ming ko‘yga solib,
Balki, holimdan kular.

Hoy, oy sanam, boy sanam,
Balandroqsan oydan ham.
Kel ozgina pastga tush,
Yolg‘iz o‘g‘ilman men ham.

Yetti kunduz-kechasi,
Poylar yetti akasi.
Borsam tosh otib quvlar,
Bir zumrasha ukasi.

Jonim garovga qo‘yib,
O‘tsam qiyo boqmaydi.
Tegmanozik bu qizga,
Bilmam, nimam yoqmaydi.

Bir kun umid yulduzim,
Baxtim bo‘lib kularsan.
Ko‘ksim uzra ko‘yib bosh,
Munis, yuvosh bo‘larsan.

QIZLAR

Go‘zal qizlar, janona qizlar,
Boqishingiz mastona, qizlar.
Bugun Navro‘z ayyomingizda,
Bizni demang begona, qizlar.

Bizlarni deb pardoz qilasiz,
Qomatingiz tannoz qilasiz.
Nogoh yuraklarga o‘t qo‘yib,
O‘chirmayman, deb noz qilasiz.

Biz bo‘lmasak, o‘smalar qayda?
Ko‘zlardagi surmalar qayda?
Olov bo‘lib yonar liboslar,
O‘shal tilla tugmalar qayda?

O‘zingizdan shirin so‘zingiz,
Laylolardan zebo o‘zingiz.
Yer yuziga shahanshoh bo‘lur,
Bir g‘aribga tushsa ko‘zingiz.

Go‘zal qizlar, jonona qizlar,
Boqishingiz mastona, qizlar.
Bugun Navro‘z ayyomingizda,
Bizni demang begona, qizlar.

ERKA QIZ

Yuzingiz oydekkina,
Qoshingiz yoydekkina.
Hech kimga parvo qilmay,
Turasiz boydekkina.

Dadasiga erka qiz,
Ayasiga erka qiz.
Ishqingiz yuragimni,
Qildi tilka-tilka qiz.

Qaramasangiz bizga,
Nima ham deymiz sizga.
Mag‘rur bo‘larkan qizlar,
Kirganda o‘n sakkizga.

Kulishlariga gap yo‘q,
Turishlariga gap yo‘q.
Tovusdan ertak aytmang,
Yurishlariga gap yo‘q.

O‘rgilay fe’lingizdan,
Achchiqroq tilingizdan.
Mehringizni qozonib,
Joy olay dilingizdan.

Chidaymiz nozingizga,
Nozu arozingizga.
Qishlardan omon chiqsak,
Yetarmiz yozingizga.

Dadasiga erka qiz,
Ayasiga erka qiz.
Ishqingiz yuragimni,
Qildi tilka-tilka qiz.

AJAB DUNYe

Azim dunyo, sehrli dunyo,
Halim dunyo, mehrli dunyo.
Zolim dunyo, qahrli dunyo,
Ajab dunyo, ajab dunyosan.

Kenglarga keng, torlarga torsan,
Yo‘qsilga yo‘q, borlarga borsan.
Bog‘larga gul, tog‘larga qorsan,
Ajab dunyo, ajab dunyosan.

Sabri borning sabri sen o‘zing,
Jafo o‘zing, jabri sen o‘zing.
G‘ofillarning qabri sen o‘zing,
Ajab dunyo, ajab dunyosan.

G‘ami ado bo‘lmas dunyosan,
Kami ado bo‘lmas dunyosan.
Ketgan qaytib kelmas dunyosan,
Ajab dunyo, ajab dunyosan.

Koshonasan kimga vayrona,
Kimga oshno, kimga begona.
Chin dunyoga o‘zing ostona,
Ajab dunyo, ajab dunyosan.

YoRILTOSh

Yorim yonimda bo‘lsang-u, yetolmasam,
Mehrim qonib qo‘llaringdan tutolmasam,
Kucholmasam, lablaringdan o‘polmasam,
Ketgim kelur dunyolarning chekkasiga,
Tashla meni yoriltoshlar o‘rtasiga.

Qololmasam xayolingda xayol bo‘lib,
Atrofingda aylanmasam shamol bo‘lib,
Qiynaganda gumonlarim savol bo‘lib,
Ketgim kelur dunyolarning chekkasiga,
Tashla meni yoriltoshlar o‘rtasiga.

Termulmasam ko‘zlaringga to‘yib-to‘yib,
Silolmasam yuzlaringni suyib-suyib,
Armon bilan yurak-bag‘rim o‘yib-o‘yib,
Ketgim kelur dunyolarning chekkasiga,
Tashla meni yoriltoshlar o‘rtasiga.

Aytolmasam dardlarimni nido bo‘lib,
Eshitmasam so‘zlarining fido bo‘lib,
Firoqingda ado bo‘lib, ado bo‘lib,
Ketgim kelur dunyolarning chekkasiga,
Tashla meni yoriltoshlar o‘rtasiga.

Meni izlab tog‘u toshga bormagin-ey,
Afsun o‘qib, yoril toshni yormagin-ey,
Jafo qilib charchamagin, xormagin-ey,
Ketgim kelur dunyolarning chekkasiga,
Tashla meni yoriltoshlar o‘rtasiga.

Daryolarda oqib ketay Tohir bo‘lib,
Hijron meni so‘ysin Qorabotir bo‘lib,
Karim junun sahrosida shoir bo‘lib,
Ketgim kelur dunyolarning chekkasiga,
Tashla meni yoriltoshlar o‘rtasiga.

MALIKAM

Gunohim ko‘p, og‘ir bo‘lsa ham,
Jazo berib yor ko‘nglingiz to‘lsa ham,
Arazingiz yetar, ey, sohibkaram,
Bir qoshiq qonimdan keching, malikam.

Yuzingizga termulib qolgan edim,
Haddim sig‘ib bir bo‘sa olgan edim,
Xijolatdan olovday yongan edim,
Bir qoshiq qonimdan keching, malikam.

Otash hislar solur tug‘yon qonimga,
Borim beray bo‘sa olgan onimga,
Shafqat qiling mittigina jonimga,
Bir qoshiq qonimdan keching, malikam.

Sevgimizning sehri bo‘lsin bo‘salar,
Taqdirimiz muhri bo‘lsin bo‘salar,
Qalbimizning mehri bo‘lsin bo‘salar,
Bir qoshiq qonimdan keching, malikam.

SYeNI UNUTMASMAN

Gul eding, qalbimdan uzdi yomonlar,
Muhabbat qasrini buzdi yomonlar,
Yuragimni yomon ezdi yomonlar,
Seni unutmasman, unutolmasman.

Sensiz o‘tgan kunlar - karvonlar aytsin,
Alamlar yog‘ilgan osmonlar aytsin,
Sog‘inchlar, hijronlar, armonlar aytsin,
Seni unutmasman, unutolmasman.

Ma’yus ko‘zlariningda qoldi xayolim,
Munis yuzlaringda qoldi xayolim,
Mahzun so‘zlariningda qoldi xayolim,
Seni unutmasman, unutolmasman.

Qo‘llarim yetmagan yulduzim, mohim,
Go‘zal Laylim eding, Shirinim - shohim.
Ko‘ksimda dod solgan ko‘shig‘im, ohim,
Seni unutmasman, unutolmasman.

Sensiz bu hayot - bir zang bosgan qafas,
Orzusiz dunyoni kim qilar havas.
Bilsang Karim uchun yoding bo‘lsa bas,
Seni unutmasman, unutolmasman.

ONAMGA

Ko‘z yoshlarga to‘ldirib bu olamni,
Kimga aytay dilda dardu alamni,
Taqdir ravo ko‘rdi jabru sitamni,
Roziligin ololmadim onamni.

Borolmadim, tog‘lar to‘sdi yo‘limni,
Zanjirlarga bog‘lab oyoq-qo‘limni,
Xudo menga bermasmidi o‘limni,
Roziligin ololmadim onamni.

Buncha meni yoqtirmasa balolar,
Ne to‘g‘ri deb qilsam, bo‘ldi xatolar,
Yetmasmidi menga shuncha jazolar,
Roziligin ololmadim onamni.

Bir bandaman, Xudodan uyalmagan,
So‘ngi marta onajon deyolmagan,
O‘g‘ilmanmi, qabriga qo‘yolmagan?

Roziligin ololmadim onamni.

Endi, Karim, meni armon yig‘latur,
Hasrat o‘ti ko‘zimni qon yig‘latur,
Ming nadomat, ming pushaymon yig‘latur,
Roziligin ololmadim onamni.

QO‘SHIQLARIM BOR

Ko‘ldan tushmas sozim, ey do‘s, bir nafas,
Kuylayman dardlarim, bedard anglamas,
Chaman bulbullari qilguday havas,
Hali aytilmagan qo‘shiqlarim bor.

Deydilar, bulbulga gul bo‘lsa bo‘ldi,
Ko‘ngil izhoriga til bo‘lsa bo‘ldi,
Mendek hofizlarga el bo‘lsa bo‘ldi,
Hali aytilmagan qo‘shiqlarim bor.

Yo‘limga ignalar sochma, hasadgo‘y,
Ortimdan tosh otib qochma, hasadgo‘y,
Qulog‘ing berkitib shoshma, hasadgo‘y,
Hali aytilmagan ko‘shiqlarim bor.

Yomonlar zulmidan afg‘onu ohim,
Ko‘shiq aytmoq bo‘ldi yolg‘iz gunohim.
Baxillarga insof bergen, Allohim,
Hali aytilmagan qo‘shiqlarim bor.

Vafo qilmas soxta shuhrat, e’tibor,
Alloh o‘zi aziz qilmasa bekor,
Qalbimda, ey, Karim toza, beg‘ubor
Hali aytilmagan qo‘shiqlarim bor.

MUNGLI KO‘ZLAR

(*Shu nomli qissani o‘qib*)

Bir kam bu dunyoda ne bor mukammal?
Hayot goh zahardir, gohida asal,
Manglayga bitilmish taqdiri azal,
Taqdirning izmiga yurmasam bo‘lmas,
Manglayga yozganin ko‘rmasam bo‘lmas.

Oyoqlarim yurmas bir qadam bo‘lsa,
Nahot yosh jonimga bu dard kam bo‘lsa,
Boshimga yog‘ilgan faqat g‘am bo‘lsa,

Taqdirning izmiga yurmasam bo‘lmas,
Manglayga yozganin ko‘rmasam bo‘lmas.

Aqldan ozdirar achchiq sitamlar,
Buni qaydan bilar bedard, bekamlar,
Bunchalar bag‘ritosh ekan odamlar,
Taqdirning izmiga yurmasam bo‘lmas,
Manglayga yozganin ko‘rmasam bo‘lmas.

Haqiqat izladim, sarg‘aydi yuzlar,
Sepildi qontalash bag‘rimga tuzlar,
Nechun yosh to‘kmasin bu mungli ko‘zlar,
Taqdirning izmiga yurmasam bo‘lmas,
Manglayga yozganin ko‘rmasam bo‘lmas.

Dunyo, sendan tonsam ne ajab,
Ajal sharobiga qonsam ne ajab,
Nohaqlik o‘tida yonsam ne ajab,
Taqdirning izmiga yurmasam bo‘lmas,
Manglayga yozganin ko‘rmasam bo‘lmas.

ADAShDIM

Yosh edim, yoshtagim ketmaydi debman,
Bu masrur lahzalar bitmaydi debman,
Otam, onam aslo o‘tmaydi debman,
Adashdim, adashdim, e voh, adashdim.

To abad qalbimni g‘ashlab ketdilar,
Chorasiz ko‘zlarim yoshtaglab ketdilar,
Bir-birin baqoga boshlab ketdilar,
Adashdim, adashdim, e voh, adashdim.

Bu manzur kunlarda yurolmadilar,
Bastu kamolimni ko‘rolmadilar,
Qarshimda yonma-yon turolmadilar,
Adashdim, adashdim, e voh, adashdim.

Ko‘nglimda g‘amlarning adosi qoldi,
Kimningdir faryodi, nidosi qoldi,
Onamning so‘ngi bor duosi qoldi,
Adashdim, adashdim, e voh, adashdim.

Hasratim dunyoga sig‘maydi, yo Rab,
Armonim bag‘rimni tig‘laydi, yo Rab.
Yetimlik Karimdek yig‘laydi, yo Rab,
Adashdim, adashdim, e voh, adashdim.

KUNDOSHLIK DARDI

Hayot go‘yo sinar bardoshim,
Ne kunlarga qoldi bu boshim,
Yo‘lda yo‘l bermadi yo‘ldoshim,
Kunda kun bermagan kundoshim.

Dunyo bo‘ldi ko‘zimga torlar,
Bahorimda yog‘ildi qorlar, .
Yuragimga berdi ozorlar,
Kunda kun bermagan kundoshim.

Yolg‘on ekan yorning vafosi,
O‘zga gulning bo‘ldi adosi,
Qaysi gunohimning jazosi,
Kunda kun bermagan kundoshim.

Alam-alam kuydirdi meni,
Bu dunyodan to‘ydirdi meni,
Kumush edim, o‘ldirdi meni,
Kunda kun bermagan kundoshim.

Daryo oqar ko‘zimda yoshim,
Yolg‘iz yostiq bo‘ldi sirdoshim,
Balolarga qo‘ydi bu boshim,
Kunda kun bermagan kundoshim.

BIR KAM DUNYO

Azal shunday yaralgan olam,
Yarim shodlik, yarim dardu g‘am,
Umid qilma, ey, aziz odam,
Butun bo‘lmas, bu dunyo bir kam.

Yashab o‘tdi, turfa xil ellar,
Unut bo‘ldi, ne qadim tillar,
O‘tsa hamki yana ming yillar,
Butun bo‘lmas, bu dunyo bir kam.

Inson qancha uringan bilan,
Mol-dunyo deb, suringan bilan,
Baxt manzili ko‘ringan bilan,
Butun bo‘lmas, bu dunyo bir kam.

Birov ota-onadan bezor,

Kimdir ular diydoriga zor.
Yo‘qsilda yo‘q, borlarda bisyor,
Bugun bo‘lmas, bu dunyo bir kam.

Bug‘doy o‘sar somoni bilan,
Gul ochilar tikoni bilan,
Yaxshi yashar yomoni bilan,
Butun bo‘lmas, bu dunyo bir kam.

Ortga qaytmas karvon barchamiz,
Boshdan oyoq nuqson barchamiz.
Zamin uzra mehmon barchamiz,
Butun bo‘lmas, bu dunyo bir kam.

HOFIZ DARDI

Ko‘sishiq aytib o‘ttizimda ham,
Hali shuhrat mayin totmadim,
Yurak dardim kuyladim, ammo
Kimga yoqdim, kimga yoqmadim.

Taqdir sinab sabru toqatim,
Sog‘inchlarda berdi rohatim,
Munofiqlar qilar g‘iybatim,
Kimga yoqdim, kimga yoqmadim.

Oshiqlarga g‘amxona bo‘lib,
Majnun bo‘lib, devona bo‘lib,
G‘ariblarga ostona bo‘lib,
Kimga yoqdim, kimga yoqmadim.

Xato qildim o‘zimni o‘ylab,
Begonalar bog‘iga bo‘ylab,
Gohi yolg‘on, gohi rost so‘zlab,
Kimga yoqdim, kimga yoqmadim.

Yo‘llar olis, manzillar olis,
O‘z qo‘sishig‘im izlayman hanuz,
Ko‘llaguvchi topmadim bir do‘st,
Kimga yoqdym, kimga yoqmadim.

Yaxshi hamki sen bor san’atim,
Tangri bergen ketmas davlatim,
Shoddigimsan, o‘zing hasratim,
Kimga yoqdim, kimga yoqmadim.

QARAShLARING

Oydin yuzlaringda oylar boqadi,
Sunbul sochlaringda soyular oqadi.
Qarashlaring aqlu hushimni olib,
Bag‘rimga sevgidan o‘tlar yoqadi.

Gul ochilib gul bo‘lolmaso‘zingdek,
Bolu asal so‘z topilmas so‘zingdek.
Jayron, ohularga nisbat bermadim,
Ko‘zlar bormi kulib turgan ko‘zingdek.

Borlig‘im yondirar nozu firog‘ing,
Yuragimda shirin dardu so‘rog‘ing.
Hijron degan qorong‘u kechalarda,
Meni chorlab turar umid chirog‘ing.

Qomatingdir sarv bo‘ylar shamshodi,
Xayolimda vasling orzusi, yodi.
Sen falak burjida Zuhro yulduzi,
Senga yetarmidi oshig‘ing dodi.

GO‘ZALIM

Bir ko‘rib, go‘zalim, oydek jamoling,
Soyadek ergashib, yetolmay qoldim,
Ko‘rinmas zanjirga bog‘lading, qo‘yding,
Eshiging oldidan ketolmay qoldim.

Chiqishing turaman har safar poylab,
Senga aytar so‘zlarim dilimga joylab,
Kunlar emas, jonim, hattoki oylab
Eshiging oldidan ketolmay qoldim.

Isming aytgan sadoga bir qarab qo‘y,
Ado bo‘lgan adoga bir qarab qo‘y,
Majnun sifat gadoga bir qarab qo‘y,
Eshiging oldidan ketolmay qoldim.

Vasling shirin xayol, orzu bo‘lsa-da,
Nozu firoqlaring mangu bo‘lsa-da,
O‘tgan-ketganlarga kulgu bo‘lsa-da,
Eshiging oldidan ketolmay qoldim.

Hijron daryolari meni yutsa ham,
Sabru bardoshlarim tamom bitsa ham,
Mayli ostonangda umrim o‘tsa ham,

Eshiging oldidan ketolmay qoldim.

YoLG‘IZ O‘G‘IL

Molu davlatlari mo‘l bo‘lar,
Obro‘-shuhratlari mo‘l bo‘lar.
Tashvish, mehnatlari mo‘l bo‘lar,
Yolg‘iz o‘g‘il bo‘lgan yigitning.

Derlar, ota-onalar mehmon,
Opa-singil toshi palahmon,
So‘ngra yolg‘iz qolgani yomon,
Yolg‘iz o‘g‘il bo‘lgan yigitning.

Topganda ham do‘sning zo‘rini,
Bosolmas hech og‘a o‘rnini,
Bilmaydilar kemptik ko‘nglini,
Yolg‘iz o‘g‘il bo‘lgan yigitning.

Oila ham kurar begumon,
O‘g‘il-qizlar ko‘rar begumon,
Faqat dilda qolar bir armon,
Yolg‘iz o‘g‘il bo‘lgan yigitning.

Qalbi yig‘lar to‘ylar qilganda,
Boshga musibatlar kelganda,
Aka-ukang bormi deganda,
Yolg‘iz o‘g‘il bo‘lgan yigitning.

Yolg‘iz bilar yolg‘iz qadrini,
Taqdir degan zolim jabrini,
Alloh bersin Karim sabrini,
Yolg‘iz o‘g‘il bo‘lgan yigitning.

BILARSAN

Do‘sstim, dardu sitam dardini,
Turfa tashvish tushsa, bilarsan,
Bahor, yozu kuzning qadrini,
Bemahal qish tushsa, bilarsan.

Hayot ayni hikmat bo‘lganin,
Umring aziz ne’mat bo‘lganin,
Chaynab yemoq rohat bo‘lganin,
Og‘izdan tish tushsa, bilarsan.

Omad kelsa boring ko‘p bo‘lar,
Suhbatinga zoring ko‘p bo‘lar,
Qarindoshing, yoring ko‘p bo‘lar,
Oshig‘ing besh tushsa, bilarsan.

Muhabbatning yolg‘onlarini,
Dil o‘rtagan hijronlarini,
Alamlari, armonlarini
Qalbinga ishq tushsa, bilarsan.

Bevafoning shaytonligini,
Bo‘salari arzonligini,
Qo‘yningda bir ilonligini
Tananga nish tushsa, bilarsan.

Dunyo bir kam, dunyo berahm,
Bog‘i yarim, sahrosi yarim,
Kimlar g‘anim, kim oshno, Karim,
Boshinga ishq tushsa, bilarsan.

USTOZ ShYeRALIGA

Tog‘lar orom olar, daryolar sokin,
Ko‘zlarga qum sochgan sahrolar sokin,
Siz ko‘shiq kuylaysiz, navolar sokin,
Xalqim ardoqlagan hofiz - Sherli.

Qirq yil qirchillagan bir yigit umri,
Kimlar to‘ti bo‘ldi, birovlar qumri,
Siz esa chamanzor yurtim bulbuli,
Xalqim ardoqlagan hofiz - Sherli.

Siz ushshoq ahlining shirin zaboni,
San’atkor vodiyning shuhrati-shoni,
Ko‘ngli yarimlarning malhami, joni,
Xalqim ardoqlagan hofiz - Sherli.

Tabiat yashnagay siz kuylasangiz,
Bulbullar sayragay siz kuylasangiz,
Keksa-yosh yayragay siz quylasangiz,
Xalqim ardoqlagan hofiz - Sherli.

El ko‘nglin choglagan inson o‘zingiz,
Eldan duo olgan inson o‘zingiz.
Alloh yorlaqagan inson o‘zingiz,
Xalqim ardoqlagan hofiz - Sherli.

SAN’AT

(Ustoz san’atkor Karimjon Rahmatovga bag‘ishlayman)

Yaxshi ham dunyoda san’at bor, san’at,
San’at bu dillarga ilohiy rohat,
Shu san’at bag‘rida yashagan faqat,
Men o‘sha Karimman, Karimjon Rahmat.

San’at bir daryodir, oqqani oqqan,
Kimga baxt, kimgarga dard bo‘lib boqqan,
Birovga yoqmagan, birovga yoqqan,
Men o‘sha Karimman, Karimjon Rahmat.

Jo‘raxon, Ma’murjon san’atin ko‘rgan,
Yusufjon, Oxunjon suhabatin ko‘rgan,
San’atning mehnatu rohatin ko‘rgan,
Men o‘sha Karimman, Karimjon Rahmat.

Do‘sit bo‘lsang, mayli, kel, yonimda turgin,
Gar dushman erursan, sal nari yurgin,
Marg‘ilon ahlidan bir so‘rab ko‘rgin,
Men o‘sha Karimman, Karimjon Rahmat.

Ko‘limda rubobu dutor sayragan,
Avjli navolardan qalbi yayragan,
Mumtoz qo‘shiqlarni dilda asragan,
Men o‘sha Karimman, Karimjon Rahmat.

Dilbar davralarda yurdim, ming shukr,
Orzuli to‘ylarda turdim, ming shukr,
Farzandlar kamolin ko‘rdim, ming shukr,
Men o‘sha Karimman, Karimjon Rahmat.

DIYDOR

Yillar o‘tib borar, ulg‘ayadi yosh,
Vaqt degan hakam bor, zolim, bag‘ritosh,
Bugun shodligimdan ko‘zlarimda yosh,
Diydorga ne yetsin, aziz sinfdosh.

Unut bo‘larmidi munavvar tonglar,
Betashvish bolalik, jonsarak jonlar.
Partada yonma-yon o‘tirgan onlar,
Diydorga ne yetsin, aziz sinfdosh.

Yoddan chiqarmidi ko‘rganlarimiz,

Dalada, paxtada yurganlarimiz,
Quvlashib, yayrashib kulganlarimiz,
Diydorga ne yetsin, aziz sinfdosh.

Bir kun farzandlarga bo‘lib parvona,
Kimdir ota bo‘ldi, kimlardir ona,
Yaratgan sha’niga aytib shukrona,
Diydorga ne yetsin, aziz sinfdosh.

Qalbim bog‘ bo‘ladi sizlarni ko‘rsam,
Vaqtim chog‘ bo‘ladi sizlarni qo‘rsam,
Ko‘ksim tog‘ bo‘ladi sizlarni ko‘rsam,
Diydorga ne yetsin, aziz sinfdosh.

Sizga baxt tilayman, baxtlar yor bo‘lsin,
Dillarda orzular oppoq qor bo‘lsin,
Dunyoda muhabbat, mehr bor bo‘lsin,
Diydorga ne yetsin, aziz sinfdosh,

EL DARDI

Vo ajab, kungilga zor sig‘may qoldi,
Go‘yoki tog‘larga qor sig‘may qoldi,
G‘azalga iboli yor sig‘may qoldi,
Shoirlar sha’niga or sig‘may qoldi,
Hofizlar ko‘ksiga tor sig‘may qoldi.

Tokchada sarg‘ayib yotar ash’orlar,
Devorda osig‘liq qoldi dutorlar,
Qaydasiz, qalbida el dardi borlar?
San’atkor sha’niga or sig‘may qoldi,
Hofizlar ko‘ksiga tor sig‘may qoldi.

Yondim deb kuylashar qizlar, vo darig‘,
Kuy g‘arib, poyma-poy so‘zlar, vo darig‘,
Andisha bilmaydi ko‘zlar, vo darig‘,
Xonanda sha’niga or sig‘may qoldi,
Hofizlar ko‘ksiga tor sig‘may qoldi.

Sahnalar ishq yo‘q bedardga qoldi,
Shovqin-suronlardan asablar toldi,
Raqqosa raqsidan shayton uyaldi,
She’rlarga vafoli yor sig‘may qoldi,
Hofizlar ko‘ksiga tor sig‘may qoldi.

Qaydan milliy bo‘lsin g‘ayri navolar,
Qolipga solingan bedard sadolar,

Afsus, qayda endi avju havolar,
Ey, Karim, ko‘ngilga zor sig‘may qoldi,
Hofizlar ko‘ksiga tor sig‘may qoldi.

ONAJON

Jahonda borligim, tanda jonimsiz,
Otamdan yodgorim, mehribonimsiz,
Suyanchim, panohim, soyabonimsiz,
Siz mening yolg‘izim, onajonimsiz,
Otamdan yodgorim, mehribonimsiz.

Yoshgina umrini boy bergen ayol,
Ne-ne azoblardan rizq tergan ayol,
Bizlarni kam qilmay o‘stirgan ayol,
Siz mening yolg‘izim, onajonimsiz,
Otamdan yodgorim, mehribonimsiz.

O‘zi yangi kiymay, bizni kiydirgan,
O‘zi yemay-ichmay, bizni to‘ydirgan,
Yomon ko‘zdan asrab, kinna yo‘ydirgan,
Siz mening yolg‘izim, onajonimsiz,
Otamdan yodgorim, mehribonimsiz,

Siz yurgan yo‘llarda yo‘l bo‘lay o‘zim,
Ko‘nglingiz ochgani gul bo‘lay o‘zim,
Neki buyursangiz, qul bo‘lay o‘zim,
Siz mening yolg‘izim, onajonimsiz,
Otamdan yodgorim, mehribonimsiz.

YaNGI YIL

Yangi yil kelmoqda navolar bilan,
Dilga yaqin ohang, sadolar bilan.
Davraga dasturxon yozar onalar,
Yaxshi niyat, ezgu duolar bilan.

Qor yog‘ar poklikning timsoli bo‘lib,
Tog‘lar, adirlarning jamoli bo‘lib.
Yangi manzillarga intilar xalqim,
Yildan-yil istiqlol kamolga to‘lib.

Har inson qalbida orzular shirin,
Nurli chehralarda, kulgular shirin.
Barchani lol etib raqs tushar qizlar,
Bugun dilbar navo, cholg‘ular shirin.

Qadamlari qutlug‘ kelsin yangi yil,
Baxtli, saodatli bo‘lsin yangi yil.
Vatan obod bo‘lsin, tinchlik barqaror,
Istiqlol nuriga to‘lsin yangi yil.

G‘IYBAT

Yig‘lama, shu ekan dunyoning bori,
Uch odam to‘plansa - g‘iybat bozori,
Joningni og‘ritar og‘riq, ozori,
G‘iybatdan qayga ham qocharmiz, jonim.

Munofiq chin do‘sting bo‘lib turadi,
Yuzlari chiroqli kulib turadi,
Ko‘zları zaharga to‘lib turadi,
G‘iybatdan qayga ham qocharmiz, jonim.

Qush bo‘lsang qonoting qayirmog‘i bor,
Ming yillik do‘stingdan ayirmog‘i bor,
Qalbida qop-qora hasad dog‘i bor,
G‘iybatdan qayga ham qocharmiz, jonim.

O‘zidan bexabar bo‘lar g‘iybatchi,
Tizzasi yirtiqqa kular g‘iybatchi,
Sendan gapirmasa o‘lar g‘iybatchi,
G‘iybatdan qayga ham qocharmiz, jonim.

Qo‘shning yomon bo‘lsa, ko‘chib ketasan,
Do‘sting yomon bo‘lsa, kechib ketasan.
Bir kuni yodidan o‘chib ketasan,
G‘iybatdan qayga ham qocharmiz, jonim.

Ko‘zingda dard bo‘lar uning dastidan,
Yuzlaring zard bo‘lar uning dastidan,
Sochingda gard bo‘lar uning dastidan,
G‘iybatdan qayga ham qocharmiz, jonim.

NYe YoZMISh YaNA

Azizim, bir joyga yetganda yoshing,
Qiblaga bosh qo‘yar umring, quyoshing,
Ne kunlar ko‘rmadi bu yolg‘iz boshing,
Bilmadik, taqdirda ne yozmish yana.

Bolalik shamoldek bir yelib ketdi,

Yigitlik mehmondek bir kelib ketdi,
Ne turli kiyganing yirtilib bitdi,
Bilmadik, taqdirda ne yozmish yana.

Yayradik, yig‘ladik, kuldik bearmon,
Hatto yulduzlarni urdik benarvon,
Topganimiz bo‘ldi xato bir xirmon,
Bilmadik, taqdirda ne yozmish yana.

Yaxshimi, yomonmi davron surdik biz,
Ro‘zg‘or deb yugurdik, uylar kurdik biz,
O‘g‘il-qiz o‘sirib, to‘ylar ko‘rdik biz,
Bilmadik, taqdirda ne yozmish yana.

Mo‘ljalga tushmaydi bossang oyog‘ing,
Duoga qo‘l ochsang, titrar barmog‘ing,
Ko‘lingda otangdan qolgan tayog‘ing,
Bilmadik, taqdirda ne yozmish yana.

Endi chor ulfatlar bizga begona,
Ko‘lda joynamozu tasbeh durdona.
Darvoza yonida bir hujraxonha,
Bilmadik, taqdirda ne yozmish yana.

Ko‘ngilda iltijo Alloh zikrimiz,
Dunyodan imonli o‘tmoq fikrimiz,
Bergan ne’matiga ming bor shukrimiz,
Bilmadik, taqdirda ne yozmish yana.

QARAB-QARAB

Qizlar aro ohista bo‘ylab,
Sunbul-sunbul sochlaring o‘ynab,
Birov bilmaydi-ku deb o‘ylab,
Qarab-qarab qo‘ysan, jonim,
Qarab meni suyasan, jonim.

Nigohingga mehringni joylab,
Husning bilan ko‘zimni bog‘lab,
Qaramagan chog‘imni poylab,
Qarab-qarab qo‘ysan, jonim,
Qarab meni suyasan, jonim.

Aytay desang ko‘ngling rostidan,
Qutilmaysan hayo dastidan,
Faqatgina ko‘zlar ostidan,
Qarab-qarab qo‘ysan, jonim,

Qarab meni suyasan, jonim.

O‘tib ketsang yonimdan kulib,
Senga tashna, zorligim bilib,
Nogoh bir ortingga qayrilib,
Qarab-qarab qo‘ysan, jonim,
Qarab meni suyasan, jonim.

BAXT

Oy zulmatda bo‘g‘ilgan kecha,
Ko‘kdan armon yog‘ilgan kecha,
Yigit boshim egilgan kecha
Sen baxtli eding.

Hijron eshik qoqqan o‘sha tun,
Sochimga qor yoqqan o‘sha tun,
Alam yomon chaqqan o‘sha tun,
Sen baxtli eding.

O‘zga uying bezatilganda,
Egilib choy uzatilganda,
Ilk bor beshik tuzatilganda,
Sen baxtli eding.

Necha yillar hajringda yurib,
Sendan ancha uzoqda turib,
Sening baxtu iqboling ko‘rib,
Men baxtli edim.

MUHABBATIM

Mening fikru xayolim olgan,
Dilga hijron otashin solgan,
Bir dard bo‘lib qalbimda qolgan,
Ham azobim, ham rohatimsan,
Muhabbatimsan.

Yoding bilan kecharkan kunlar,
Xayolingsiz o‘tmas ne tunlar,
Qaydan bilsin bag‘ri butunlar,
Tinchim olgan halovatimsan,
Muhabbatimsan.

Topgan edim yo‘qotdim seni,
Bu g‘arib qalbimning taskini,

Tashlab qaylarga ketding meni,
Armon bo‘lgan saodatimsan,
Muhabbatimsan.

Sen borsanki, go‘zal bu hayot,
Orzularga bo‘larsan qanot,
Karim uchun o‘zingsan najot,
Yo‘qligim ham bor davlatimsan,
Muhabbatimsan.

BIROVDAN KO‘RMA

Bandasan, ne bo‘lsang, birovdan ko‘rma,
Yig‘lasang yo kulsang, birovdan ko‘rma,
Egilsang, bukilsang, birovdan ko‘rma,
Xazondek to‘kilsang, birovdan ko‘rma.

Tiriklik sahnida yugurding, chopding,
Nimadir yo‘qotding, nimadir topding,
Kimmadir siypalab, kimmadir qopding,
Qoqinib yiqilsang, birovdan ko‘rma.

Tuproqsan, gohida zalvorli tog‘san,
Gohida bemorsan, gohida sog‘san,
Hayot daraxtida bitta yaproqsan,
Qay fasl uzilsang, birovdan ko‘rma.

Yaratgan asraydi seni, bolangni,
Boriga shukr qil otang, onangni,
Bejizdan to‘kmaydi bir soch tolangni,
Nogahon ayrilsang, birovdan ko‘rma.

Seni aziz qildi rizqingni butun,
Dunyoda jamiki jonzotdan ustun,
Sen esa ne qilding bu izzat uchun,
Harom yeb tiqilsang, birovdan ko‘rma.

Boy bo‘lding, suyunding, Xudo berdi, deb,
Yo‘g‘ingda kuyukding, Xudo urdi, deb,
Folbindan demagin, ishim yurdi, deb,
Tilingdan tutilsang, birovdan ko‘rma.

Kimdir masjid kurar, bersa dastiga,
Kimdir chohlar qazir boyroq do‘stiga,
Karim, jonim beray gapning rostiga,
Bandasan, ne bo‘lsang, birovdan ko‘rma.

ONA FARYoDI

(*Marsiya*)

Ko‘zlarimni yoshlab ketding, o‘g‘lonim,
Yuragimni g‘ashlab ketding, o‘g‘lonim.,.
Samolarni tutdi ohu faryodim,
Nechun bevaqt tashlab ketding, o‘g‘lonim?

Hayot degan tikanmidi, gulmidi,
Pastu baland so‘qmoqmidi, yo‘lmidi,
Farzand dog‘i deganlari shumidi,
Nechun bevaqt tashlab ketding, o‘g‘lonim?

Yurgan yo‘ling yo‘lmasmidi, dilbandim,
Ajal ko‘ngli to‘lmasmdi dilbandim.
Onang o‘lsa bo‘lmasmidi, dilbandim,
Nechun bevaqt tashlab ketding, o‘g‘lonim?

Akang, opa-singillaring zor etib,
Dadajoning sochlarini qor etib,
Men onangga dunyolarni tor etib,
Nechun bevaqt tashlab ketding, o‘g‘lonim?

Shahidlarga jannat ato bo‘larkan,
Faryod qilsam, gunoh, xato bo‘larkan,
Onang darding tortib ado bo‘larkan,
Nechun bevaqt tashlab ketding, o‘g‘lonim?

Kuyov bo‘lsang, yayrab yursam bo‘lardi,
Nabirayu kelin ko‘rsam bo‘lardi,
Davlatingda davron sursam bo‘lardi,
Nechun bevaqt tashlab ketding, o‘g‘lonim?

Seni eslab, to abad, yod etarman,
Ayriliqdan g‘am-alamlar yutarman,
Bir kun, o‘g‘lim, yonginangga ketarman,
Nechun bevaqt tashlab ketding, o‘g‘lonim?